

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAMIDXANOV BOXODIRXON KOMIL O‘G‘LI

**YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHNING
IJTIMOIY-MAFKURAVIY OMILLARI**

**09.00.05 – Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari
(falsafa fanlari)**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD)

Xamidxanov Voxodirxon Komil o‘g‘li

Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-mafkuraviy omillari 3

Хамидханов Боходирхон Комил угли

Социально-идеологические факторы повышения интеллектуального потенциала молодежи..... 25

Khamidkhanov Bokhodirkhon Komil ugli

Social and ideological factors in increasing the intellectual potential of youth 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.14 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XAMIDXANOV BOXODIRXON KOMIL O‘G‘LI

**YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHNING
IJTIMOIY-MAFKURAVIY OMILLARI**

**09.00.05 – Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari
(falsafa fanlari)**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fal1258 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fs-ik.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashev Ibodulla
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Norqulov Do'stmurod
falsafa fanlari doktori, professor

Abduxaliqov Safar
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Muhammad Al-Xorazmiy
nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27 mart soat 14⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona. Tel.: 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (35-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 17 " mart " kuni tarqatildi.

(2025-yil 17 " mart " daqi No 5 raqamli reestr bayonnomasi).



N.A.Shermuxamedova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, falsafa fanlari doktori, professor

M.T. Xidirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, falsafa fanlari doktori, dotsent

J.Y.Mavlonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, siyosiy
fanlar doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Jahonda yoshlarning intellektual salohiyati, ma'naviy madaniyati, jismoniy sog'lomligini oshirish, ularning muayyan hunar yoki kasbni egallashi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. Yoshlar xalqaro fan olimpiadalari, turli tanlovlar, sport o'yinlarida ishtirok etmoqda va vatan sha'nini himoya qilishga oqilona yondashmoqda. Ayni paytda ba'zi yoshlar ongida ijtimoiy jarayonlarga nisbatan befarqlik, boqimandalik, turli ekstremistik guruhlar faoliyatida ishtirok etishga moyillik ham kuzatilmoqda. Shu bois barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish, davlatlararo o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy hamkorlikni kengaytirish, dunyoda tinchlikni saqlash uchun yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning takomillashgan metodologik yondashuvlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda adolat mezonini bilan ish ko'radigan, tarixiy haqiqatlarni o'rganish asosida kelajakni prognozlashtiradigan yoshlarning yangi avlodini tarbiyalash, ular dunyoqarashida ijtimoiy va professional mas'uliyatni his qilish, vatanparvarlik, halol mehnat bilan yurt ravnaqiga munosib hissa qo'shish tuyg'ularini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixiy shaxslarning hayoti, jasorati, ijodini o'rganish va ulardan ibrat olish uchun kinofilmlar suratga olinmoqda. Shu nuqtayi nazardan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning mafkuraviy ahamiyatini asoslash, unga ta'sir etuvchi mezonlarni aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda "Yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi Qonun yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning huquqiy, metodologik omili sifatida amal qilmoqda. Qonunda belgilangan "Yosh oila", "Yosh muhandis", "Yoshlar tadbirkorligi"ni rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilanmoqda va bu faoliyat yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarda intellektual salohiyati yuqori yoshlarning o'qishi va izlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Oliy ta'lim tizimi liberallasuvi yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida amal qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shayotgan yoshlar "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori", "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotlari bilan rag'batlantirilmoqda. Zero, "Global miqyosda raqobat kuchayib borayotgan murakkab vaziyatda yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda"¹. Biroq ba'zi yoshlar orasida huquqbuzarliklar, jinoyatlar ham kuzatilmoqda. Shu bois yoshlar bilan individual ishlashning metodologiyasini takomillashtirish, ularning yashirin istedodini ro'yobga chiqarish metodologiyasini takomillashtirish mafkuraviy ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 443.

to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 3-iyuldagi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi 36-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, vatanparvarligiga oid g'oyalar jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ilgari surilgan. "Avesto" muqaddas kitobida yoshlarning ma'naviy barkamolligi oiladan boshlanishi², Konfutsiy ta'limotida bilim yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi asosiy mezonligi³, qadimgi yunon faylasufi Suqrot jamiyatning eng katta muammosi⁴ yoshlar tarbiyasi ekanligini ta'kidlagan.

Sharq olimlari Al-Farobiy to'liqsiz jamiyatda yoshlarni tarbiyalash mumkin emasligini⁵, J. Rumi jamiyatning rivojida yoshlar tarbiyasining ahamiyatini⁶, Ibn Sino bilim intellekt tarbiyasining muhim omili ekanligini⁷, g'arb olimi I.Kant bilim va tajriba intellektual salohiyatni oshirishning kafolatligini⁸, fransuz ma'rifatparvarlari Didro, Golbax, Volter aql va ruh tarbiyasi mutanosibligiga erishishning ahamiyatini ochib berganlar.

XX asrning 60-yillarida MDH olimlari M.K.Akimova, A.N.Voronin, Y.A.Valuyeva, Y.V.Dudorova, N.A.Lujbina intellektual salohiyatni oshirishning psixologik jihatlarini⁹, I.A.Быковskiy, N.Yu.Trushkina, A.S.Stepanenko,

² Xomidiy X. Avestodan islomgacha. – Toshkent: Sharq, 2006. –B. 34.

³ Конфуций // Всемирная энциклопедия. – М.: Современные тетради, 2001. – С. 123.

⁴ Сократ // Всемирная энциклопедия. – М.: Современные тетради, 2001. – С. 423.

⁵ Al Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – B. 173.

⁶ Rumi J. Ichindagi ichindadir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B. 73.

⁷ Ibn Sino. Donishnoma. – Dushanbe, 1972. – 123 s.

⁸ Кант И. Критика чистого разума. – М.: Наука, 2016. – 720 с.

⁹ Акимова М.К. Интеллект как динамический компонент в структуре способностей. Дис. ... д-ра. психол. наук. – М., 1999. – 397 с., Воронин А.Н. Интеллект и креативность в совместной деятельности. Дис. ... д-ра психол. наук. – М., 2004. – 376 с., Валуева Е.А. Интеллект, креативность и процессы активации семантической сети. Дис. ... канд. психол. наук. – М., 2007. –125 с., Дудорова Е.В. Интеллект как процесс и знание в области культуры: когнитивные, личностно-мотивационные и продуктивные аспекты. Дис. ... канд. психол. наук. – Пермь, 2005. – 152 с., Сиерральта Зуныга Хорхе Бернардо. Особенности психических ресурсов личности в раннем юношеском возрасте (Копинг-стратегии, защитные механизмы, социальный интеллект и общий

O.D.Shipunova, D.A.Rostovyx, R.V.Shutov, A.Y.Nikitin, N.Y.Popova yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning falsafiy jihatlarini tadqiq etganlar¹⁰.

O‘zbekistonda I.Ergashev, S.Jo‘rayev, A.H.Xolmahmatov, G.Tulenova, D.Raximova, Z.Qodirova, Z.Xolmirzayev, Q.Quronboyev, N.Jo‘rayev, F.Ravshanov, H.Axmedov yoshlar ongida tolerantlik tuyg‘usini shakllantirish, ularning ijtimoiy siyosiy faolligini oshirishning metodologik yondashuvlarini, U.Kerimov, H.Yorqulov, N.Rizayev, O.Oqyulov, M.Qalandarova, V.I.Andriyanova intellektual salohiyatning ma’naviy madaniyat, pedagogik tarbiya bilan bog‘liq jihatlarini ochib berganlar¹¹.

Bu ilmiy tadqiqotlarda yoshlar tarbiyasining intellektual-pedagogik, ijtimoiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy jihatlarini tasniflangan, lekin yoshlar ongiga mafkuraning ta’siri yetarlicha asoslanmagan. Shu bois ushbu tadqiqot ishida yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning mafkuraviy, milliy va umuminsoniy darajadagi ahamiyatini asoslashga harakat qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universiteti “Siyosatshunoslik” kafedrasining “Barqaror taraqqiyotning huquqiy va mafkuraviy omillari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-siyosiy, tarixiy omillari, mafkuraviy jihatlarini va jamiyat taraqqiyotidagi rolini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yoshlarning tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch sifatida jamiyat transformatsiyasiga ta’sirini ochib berish;

интеллект). Дис. ... канд. психол. наук. – СПб., 2000. – 163 с. Лужбина Н.А. Социальный интеллект как системообразующий фактор психологической культуры личности. Дис. ... канд. психол. наук. – Барнаул, 2002. – 192 с.

¹⁰ Быковский И.А. Философские аспекты проблем создания искусственного интеллекта. Дис. ... канд. филос. наук. – Саратов, 2003. – 180 с., Трушкина Н.Ю. Отношение теоретических концепций и компьютерных моделей в исследованиях искусственного интеллекта. Дис. ... канд. филос. наук. – М., 2008. – 136 с., Степаненко А.С. Социокультурные и технологические предпосылки искусственного интеллекта. Дис. ... канд. филос. наук. – Ростов-на-Дону, 2007. – 203 с., Шипунова О.Д. Интеллект и субъективность (Социально-философский анализ). Дис. ... д-ра филос. наук. – СПб, 2004. – 354 с., Ростовых Д.А. Социальный интеллект как фактор общественного развития в условиях информатизации. Дис. ... канд. филос. наук. – М., 2007. – 187 с., Шутов Р.В. Гносеологический анализ природы и сущности искусственного интеллекта. Дис. ... канд. филос. наук. – Тамбов, 2002. – 159 с., Никитин А.Е. Эпистемология искусственного интеллекта. Дис. ... канд. филос. наук. – Архангельск, 2007. – 163 с., Попова Н.Ю. Интеллект как репрезентация и отражение действительности. Дис. ... канд. филос. наук. – Красноярск, 2006. – 168 с.

¹¹ Керимов У. Глобализация в аспекте проблемы создания искусственного интеллекта / Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari: O‘zbekiston gumanitar jurnali. – Toshkent, 2005. № 4. – С. 150–161. Yorqulov H. Intellektual elita va uning mohiyati / Falsafa va huquq: Ilmiy-nazariy, ma’rifiy jurnal. –Tashkent: Akadem-xizmat, 2007. № 1. – S.13–14. Yorqulov H. Jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishda davlat kadrlar siyosatining o‘rni // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. –Toshkent, 2005. №1. – B.13–19. Rizayev N. Intellektual mulk-jamiyat boyligi: Talqin va tahlil // O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi: Agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnal. – Toshkent, 2009. № 11. – B. 30. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi: Yuridik fanlari d-ri...dis.;– Toshkent: TDYUI, 2000. – 305 b. Oqyulov O. Intellektual salohiyatni saqlab qolishga qaratilgan choralar // Huquq: Ichki ishlar vazirligi Akademiya ilmiy-nazariy yuridik jurnal. –Toshkent, 2005. № 1. – B.1–4. Akramxodjayeva Z.S. Intellektual mulk huquqini fuqarolik-huquqiy himoya qilishni takomillashtirish muammolari: Yuridik fan. nomzodi dis...Avtoref; – Toshkent: O‘zR Adliya vazirligi, TDYUI, 2008. – 24 b. Qalandarova M. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni aqliy-intellektual rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari // Uzluksiz ta’lim: Ilmiy-uslubiy jurnal. –Toshkent: Sharq, 2010. № 1. – B. 15–17. Адриянова В.И. Интеллектуальное воспитание и обучение учащихся // Xalq ta’limi: O‘zPFITi ilmiy-metodik jurnal. –Tashkent: Sharq, 2005. № 1. – B. 138–143.

yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish uchun yaratilayotgan sharoitlarni davrlar nuqtai-nazaridan qiyoslash va ijobiy jihatlarini asoslash;

yoshlarning intellektual salohiyati va inson kapitali dinamikasini tasniflash, ijobiy va farqli jihatlarini asoslash;

yoshlar va kattalar munosabatlaridagi munosabatlarda ijtimoiy muhit va mafkuraviy jarayonlarning ta'sirini aniqlash va intellektual salohiyat omillarini asoslash.

Tadqiqotning obyektini sifatida jamiyatning barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlar intellektual salohiyatini oshirishga tegishli bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida analiz, sintez qiyosiy tahlil, tarixiylik mavhumlikdan konkretlikka o'tish, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish yangi g'oyalar asosida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, beqarorlikdan barqarorlikka o'tish omili sifatida mafkuraviy metodologiya vazifasini bajarishi asoslangan;

jamiyatdagi transformatsion o'zgarishlar davrida intellektual salohiyat – jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy bog'liqlik, rivojlanish istiqbollarini belgilovchi, siyosatda amaliy qarorlar qabul qilishdagi konstruktiv manba, omil, sabab va harakatlantiruvchi kuch sifatida asoslab berilgan;

ta'lim investitsiyalari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning moddiy manbai, o'quvchi va talaba yoshlarning turli tanlovlarda ishtirok etishi ma'naviy asos sifatida yangi yoshlar elitesini tarbiyalash, ularning yurt tinchligi vatan ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishga yo'naltiruvchi ijtimoiy mezon ekanligi ochib berilgan;

yoshlar va kattalarning muloqot makonini tashkil etish intellektual salohiyatni aniqlash, asrash va davomiyligini ta'minlashning ma'naviy asosi, kattalarning ijtimoiy faolligini saqlash, yoshlarga ibrat bo'lish maktabi ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liqligi va bu Yangi O'zbekistondagi boshqaruv jarayonida tizimli tashkil etilganligi, intellektual salohiyati yuqori yoshlar mamlakat kelajagining tayanchi ekanligi ochib berilgan;

yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda bilim va amaliyot mutanosibligiga erishish, yoshlarning maqsadli kasb tanlash imkoniyati va o'zligini namoyon etish omili ekanligi asoslangan;

uch avlod yoshlarining intellektual salohiyatini oshirish uchun yaratilgan sharoitlar qiyosiy tahlil etilgan va Yangi O'zbekistonda yaratilgan sharoitlarning ustuvor yo'nalishlaridan foydalanish va ularni ommalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy konferensiyalar materiallari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ishlab chiqilgan taklif va

tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yoshlar ilm va salohiyatini oshirishda inson kapitalini asrash, ta'lim investitsiyalarini keng ko'lamda qo'llash, yoshlarning ilmiy, siyosiy, ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga oid ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning tarixiy ijtimoiy ahamiyati, ularning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi ishtirokini tizimli tashkil etishning rolini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlarda, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan monografiyalar tayyorlashda, konferensiyalar o'tkazishda, "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining mohiyatini ochib berishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlar intellektual salohiyatini oshirishning ijtimoiy-mafkuraviy omillarini tadqiq qilish bo'yicha tavsiya va takliflar:

yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish yangi g'oyalar asosida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, beqarorlikdan barqarorlikka o'tish omili sifatida mafkuraviy metodologiya vazifasini bajarishi kabi ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi kengashining 2024-yil 14-fevraldagi 4035-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi Mexnat va ijtimoiy masalalar qo'mitasining 2024-yilgi mo'ljallangan ish rejasi"ning 13-bandini ishlab chiqishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2024-yil 3-maydagi 04/3-12-15-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar yangi O'zbekistonda 5 ta muhim tashabbus 1 mln dasturchi ijtimoiy loyihalari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning maqsadli faoliyatini tashkil etish va rag'batlantirishning milliy dasturi sifatida amal qilishi va aholining turli qatlamlari ongida davr ruhiga moslashish tendensiyalarini shakllantirish omili ekanligiga xizmat qilgan.

jamiyatdagi transformatsion o'zgarishlar davrida intellektual salohiyat – jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy bog'liqlik, rivojlanish istiqbollari belgilovchi, siyosatda amaliy qarorlar qabul qilishdagi konstruktiv manba, omil, sabab va harakatlantiruvchi kuch borasidagi ilmiy taklif va tavsiyalardan 2023-yil 18-oktyabrdagi Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining "Samarqand yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni o'rganish natijasi to'g'risida"gi 04/9-06-sonli Qarorini tayyorlashda hamda undagi vazifalarni belgilashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasining 2024-yil 2-maydagi 04/9-10-16-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar ta'lim investitsiyalari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning moddiy manbai, o'quvchi va talaba yoshlarning turli tanlovlarda ishtirok etishi ma'naviy asos sifatida yangi yoshlar elitasini tarbiyalash, ularning yurt tinchligi, vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltiruvchi ijtimoiy mezon sifatida xizmat qilgan.

ta'lim investitsiyalari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishning moddiy manbai, o'quvchi va talaba yoshlarning turli tanlovlarda ishtirok etishi ma'naviy asos sifatida yangi yoshlar elitasini tarbiyalash, ularning yurt tinchligi vatan ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishga yo'naltiruvchi ijtimoiy mezon ekanligiga oid ilmiy taklif va tavsiyalardan 2023-yil 5-sentyabrdagi Yoshlar ishlari agentligining "Ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan va alohida e'tiborga muhtoj yoshlar bilan individual ishlash bo'yicha "Qo'qon shahar tajribasi"ni joriy etish" bo'yicha tartibini tayyorlashda, Yoshlar ishlari agentligining yillik ish rejasining 32- va 61-bandlarini ishlab chiqilishida hamda undagi vazifalarni belgilashda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 23-maydagi 1-01-21-2416-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida intellektual salohiyatning tashuvchilari va manbalari turli xil bilim va g'oyalarni olib kirishga ochiqligi va iqtisodiyotning ularni samarali qayta ishlash qobiliyatiga bog'liqligi yoshlar bandligini ta'minlashga asosiy turtki bo'lib xizmat qilgan.

yoshlar va kattalarning muloqot makonini tashkil etish intellektual salohiyatni aniqlash, asrash va davomiyligini ta'minlashning ma'naviy asosi, kattalarning ijtimoiy faolligini saqlash, yoshlarga ibrat bo'lish maktabi ekanligiga oid ilmiy g'oyalardan O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi faoliyatida foydalanildi (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2024- yil 14-iyundagi 6-232-son ma'lumotnomasi). Natijada partiya tizimidagi xodimlarning yoshlar bilan ishlash faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallar) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 126 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganlik darajasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning “Yoshlar intellektual salohiyatini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida yoshlar intellektual salohiyati intellektual kapital va inson kapitali tushunchalarining mohiyati, yoshlarning intellektual salohiyatini o‘rganishga doir zamonaviy yondashuvlar qiyosiy tahlil etilgan va yoshlar intellektual salohiyatini O‘zbekistonni innovatsion rivojlantirish omili ekanligi asoslanilgan.

Muallif fikricha, yoshlar mamlakat taraqqiyotining asosiy tayanchi bo‘lib, ularning ilmiy-ijodiy dunyoqarashi, yuqori intellektual salohiyatini shakllantirish ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq. Davlat boshqaruvi darajasida yoshlarga e‘tibor ularni doimiy nazorat qilish va faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyatda yoshlarning o‘zi ham intellektual, ham innovatsion dinamik jarayonlarni harakatlantiruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda davlat siyosati nafaqat yoshlar faolligini oshirishga alohida e‘tibor qaratishi, balki yosh avlodning dunyoqarashida tub o‘zgarishlar hosil qilishi bilan birga davlat strategiyasini ham ularning tafakkur tarzi va amaliy faoliyatiga moslashtirishi lozim.

Intellektual salohiyatning rivojlanishi ajdodlar va avlodlararo vorisiylikka ham bog‘liq. Chunki tarixiy tajriba bu borada katta ahamiyatga ega bo‘lib, intellektning buyuk sohiblari bo‘lgan Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Amir Temur kabi ajdodlarimizning olimlik, avliyolik, donishmandlik kabi salohiyati va fazilatlari munosib baholangan. Buyuk ajdodlarimizning intellektual jihatdan ham munosib vorisi bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalash xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydi: “yetakchi olimlar, iste’dodli yosh ilmiy xodimlarning faoliyati va ilmiy tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda ilm-fan namoyondalarining obro‘-e‘tibori va nufuzini oshirish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘ladi”¹².

Intellekt (lot. “intellectus” – “aql”, “idrok”, “zehn”) ma’nosini anglatib, antik davrda Suqrotning talabalari va izdoshlari intellekt “daymoniy”, Aflotun zamonaviy “intellekt” atamasining analogiga ega - nus va “metempsixoz” deb Aristotel faqat elitaga xos bo‘lgan sillogistikaning maxsus tajribasi va ko‘nikmalari sifatida tushuniladi. “Intellekt” O‘rta asrlar allomalari asarlarida ham bevosita qo‘llanila boshlandi. Yetuk Sxolastika vakillarida intellekt borasida qalbdagi Xudoning surati bilan bog‘liq va intellektning faoliyati iymonga zid kelmasligi haqida fikr bor edi. Yangi davrda intellektning ratsional talqinlari F. Bekon va R. Dekart intellektning mohiyatini shaxsda umumiylikni farqlash qobiliyati bilan aniqladi. XVII–XVIII asrlardagi ratsionalistik falsafa vakillari epistemologiya pozitsiyasidan intellekt borasida idrokning usul qoidalarini shakllantirish qobiliyati (R. Dekart), vositachilik g‘oyalarini izlash va xulosalar chiqarish qobiliyati (J. Lokk), abadiy haqiqatlarni bilish (G.F. Leybnis) bo‘lgan bo‘lsa, Kantning intellekti esa eng yuqori bilim qobiliyatidir.

XIX asrdan boshlab intellektual muammolarni o‘rganish universal falsafiy ta’limotlar doirasida olib borilgan, bu intellektning mohiyatini talqin qilishga ta’sir ko‘rsatgan. A. Sent-Simon, S. Fure, R. Ouyenning asarlarida intellektning axloqiy, teng

¹² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 176.

huquqli jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. L. Byuxner, N.M. Belyurko, Fogt, Moleshott aqlning vulgar-materialistik talqinlarini taklif qildi, uni faqat biokimyoviy jarayonlarning yig'indisiga tenglashtiradi¹³. Pozitivizm asoschisi O. Kontning fikriga ko'ra, natijasi pozitivizm bo'lgan insoniyatning umumiy intellektual rivojlanishi asosiy tarixiy qonun mavjudligini ko'rsatadi. F. Nisshe intellekt dunyoni amaliy ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan darajada sxemalashtirishga imkon beradi, deb ishongan¹⁴. Intuitivizm va hayot falsafasi vakili Anri Bergson intellekt moddiy, fazoviy obyektlar bilan ishlash vositasi, sezgi esa insonga obyektlar va hodisalarning yaxlitligi mohiyatini tushunishga imkon beradi, deb bilgan¹⁵.

XX asr boshlarida intellektning tabiati va mohiyati biologiya, tibbiyot va psixologiya kabi bir qator fan sohalari vakillarining diqqat markazida bo'ldi. Ushbu qiziqish rivojlanib borishi bilan tadqiqotlarda miqdoriy usullar qo'llanildi. Fransuz psixologlari A. Binot va T. Simon maxsus sotsial testlar – IQ yordamida intellekt darajasini aniqlash shkalasini yaratdilar. Shvetsariyalik psixolog va faylasuf J. Piaje intellektual rivojlanish nazariyasini yaratib, unga ko'ra, intellekt barqaror makon-vaqt mantiqiy tuzilmalarini bir zumda tashkil etish orqali atrof-muhitga ma'naviy moslashuvning eng yuqori shakli hisoblanadi. Hozirgi davrda intellektning mohiyati va mazmuniga doir 70 dan ortiq mualliflarning ta'rifi mavjud bo'lib, ular intellektning madaniy-tarixiy jihatlarini aks ettiradi. Shu ma'noda intellekt tushunchasi muntazam o'zgarib turadi. Bunday o'zgarish jarayoni intellektual madaniyatning yuksalishi bilan bog'liqdir¹⁶.

Tadqiqotchi fikricha, zamonaviy jamiyatning taraqqiyot belgilaridan biri bo'lgan raqamlashtirish sun'iy intellektning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi va rivojlanishi, o'z navbatida, tabiiy intellektni chuqur o'rganish bilan o'zaro bog'liqdir. Shunday qilib, sun'iy intellektni aniqlash muammosi asosan intellektning ta'rifiga to'g'ri keladi: intellekt monolit narsami yoki bu konsepsiya turli qobiliyatlar to'plamini o'z ichiga oladimi? Sun'iy intellekt tabiiy intellektni qay darajada takrorlashi mumkin? Bizning fikrimizcha, zamonaviy tadqiqotchilar "sun'iy intellekt" atamasining ma'nosi bo'yicha hali bir fikrga kelishmagan, deb o'ylaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 12-maqsadida barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Bu borada O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash, har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish hamda ichki va tashqi bozorlarda

¹³ Козырев В.И. Социальный интеллект как фактор управления организацией. – Ярославль, 2000. – С. 307

¹⁴ Ник Бостром. Искусственный интеллект. Этапы. Угрозы. Стратегии. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2016. – С.145.

¹⁵ Бескова И.А., Герасимова И.А., Меркулов И.П. Феномен сознания. – М.: Прогресс-Традиция, 2010. – С. 28.

¹⁶ Siddiqov I. Yoshlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya – Farg'ona, 2020. – B. 20.

tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirishga e'tibor qaratilgan¹⁷.

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, 2019–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini Innovatsion rivojlantirish strategiyasida yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Mamlakatimiz ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, innovatsion ta'lim tizimini kengroq joriy etish, global ta'lim makonida raqobatlasha oladigan tizimni yaratish hamda yurtimiz nufuzini oshirishga qaratilgan innovatsion g'oyalarni aks ettiruvchi ko'plab dastur va loyihalar ham ishlab chiqilmoqda. Fikrimizcha, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish kabi muhim vazifalar belgilandi. Eng muhimi, bu yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmonida yangi bosqichga ko'tarildi¹⁸.

Insoniyat taraqqiyotida intellektual resurslar ustuvor bo'ladi. "O'zbekiston Respublikasida 36 milliondan ortiq odam istiqomat qiladi. Shundan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Bu – aholining qariyb 55 foizini tashkil etadi"¹⁹. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022/23-o'quv yili boshida respublikamizda faoliyat yuritayotgan 191 ta oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar soni bir milliondan oshgan²⁰. Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ulardan samarali foydalanish va boshqarish uchun uni ma'lum mezonlar bo'yicha baholash tizimini shakllantirish zarur. Olingan ma'lumotlar yoshlarning mavjud salohiyati, erishilgan natijalarni amalga oshirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari haqida to'liq tasavvur beradi, faoliyat samaradorligini baholash va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun universitetni yanada rivojlantirish trayektoriyasini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy-siyosiy islohotlar – keng ko'lamli va aniq jabhalarda yangi g'oyalar yaratish, ularni tatbiq etishga qaratilgan innovatsion tafakkur mahsulidir. Yoshlarni bunday faoliyat ko'rsatishga tayyorlash o'ta muhim ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalar sirasiga kiradi. Albatta, kasbiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanish jarayonida innovatsion tafakkurni shakllantirish tugal, mukammal darajaga olib chiqilishi mumkin. Ammo hozirgi tezkor zamonda har qanday faoliyat uchun zarur bo'lgan malakaviy qobiliyatlarni ta'limning boshlang'ich bosqichlaridan shakllantirib borish maqsadga muvofiq ekanligi o'z-o'zidan ayondir. Bu fikrlar yoshlarni ijodiy faoliyatga tayyorlash, ularni innovatsion tafakkurning turli jihatlaridan boxabar qilish maqsadga muvofiq ekanligini namoyon etadi. Tadqiqot asosida ushbu jihatlar tizimlashtirildi:

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni / <https://www.lex.uz/uz/pdfs/6600413>

¹⁸ Yuqoridagi manba.

¹⁹ <https://xs.uz/uzkr>

²⁰ https://t.me/statistika_rasmiy/3289

Insonning intellektual salohiyati namoyon bo'lish sohalari	
davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini o'z ichiga olgan ta'lim tizimi	yuqori texnologiyali sohalarda
davlat va nodavlat ilmiy muassasalarni o'z ichiga olgan fan tizimi	boshqaruv qarorlari qabul qilishda
patentlar, litsenziyalar, nou-xau ko'rinishidagi intellektual mulk	ijodiy faoliyatining aql-idrok intensivligi faoliyatning barcha sohalarida
kompyuter dasturlari, mamlakat internet resurslari	ichki va xalqaro miqyosda
aloqa tizimi, bosma (kutubxonalar) va elektron ma'lumotlar bazalari	

Intellektual salohiyat innovatsiya va novatorlik imkoniyatlarisiz rivojlanmaydi. Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg'or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil etish va boshqaruv sohasidagi yangiliklarni yaratish va amalga oshirishga sarmoyaning insoniy, moliyaviy va boshqa turlarini kiritish natijasida olingan mahsulotni tushunish taklif etiladi. Innovatsiyalarning xossalari ajratib ko'rsatildi, ushbu hodisaning innovatsiyalar, ishlab chiqarish, sarmoya kiritish va rag'batlantirish vazifalarini ado etgan holda iqtisodiyotning yanada rivojlanishini ta'minlovchi raqobatbardosh subyekti mavjudligining muqarrar sharti ekanligida ifodalanuvchi mohiyati ochib berildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Yoshlar intellektual madaniyatini oshirishni modellashtirishning mafkuraviy ahamiyati” deb nomlanadi. Unda O'zbekistonda yoshlarning intellektual salohiyatini shakllantirishda intellektual va innovatsion kapitalning o'ri, yoshlar intellektual salohiyatini shakllantirishning ichki omillari, modernizatsiyalashuv jarayonlari va ta'lim siyosati uyg'unligi tahlil qilingan.

Jahondagi eng rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, taraqqiyotning eng muhim omili inson kapitali hisoblanib, bunda ularning intellektual salohiyati, mamlakatning innovatsion siyosati muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq, bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz – ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda, qadrli hamda hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz²¹. Mamlakatimizning ulkan intellektual salohiyatini ko'tarish, yoshlarni bilimli va zakovatli qilib voyaga yetkazishning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy va huquqiy asoslari tobora mustahkamlanib bormoqda.

²¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 144

Davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor sohalarida intellektual salohiyatning natijalarini, innovatsiyalarni joriy etish tizimli holga aylanib bormoqda. Aslida, innovatsiya, yangilikni joriy etish – bu bozor talab etayotgan jarayonlar yoki mahsulotlar samaradorligining sifat jihatidan o‘shini ta’minlovchi joriy etilgan yangilikdir. U inson intellektual faoliyatining, uning fantaziyalari, ijodiy jarayoni kashfiyotlari va ixtirolari hamda ratsionalizatorining yakuniy natijasidir. Bozorga yangi iste’molchilik xususiyatlariga ega bo‘lgan yoki ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi bilan sifati oshirilgan mahsulotlarni (tovarlar va xizmatlarni) olib kirish innovatsiyaga misol bo‘la oladi.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi ko‘p jihatdan aholining intellektual resurslarni rivojlantirishga qo‘shgan hissasiga, har bir shaxsning shaxsiy salohiyati kasbiy va shaxsiy sohada qay darajada amalga oshirilishiga bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar dinamikasi, birinchi navbatda, oliy ta’lim tizimi doirasida kasbiy tayyorgarlik sifatiga talablarning oshishini belgilaydi. Ta’limning shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilganligi talabning shaxsini, uning ijtimoiy, kasbiy va intellektual faoliyat subyekti sifatidagi fazilatlarini ochib berish va shakllantirish uchun sharoit yaratish bilan bog‘liq. Zamonaviy akmeologik nazariyalarda balog‘at yoshidagi intellektual rivojlanishning potensial va aloqa masalalarini aniqlash va tadqiq etishga yondashuvlar bir necha yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi – psixometrik yondashuv (A. Binet, D. Veksler, D. J. Guilford, R. Kettell, Ch. Spearman va boshqalar), unda intellekt ma’lum kognitiv funksiyalarni shakllantirishda, shuningdek, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladigan daraja sifatida qaraladi.

Intellektual salohiyat intellektual va ijodiy qobiliyatlar, mamlakat, sanoat yoki shaxsning resurslari rivojlanish darajasining murakkab xarakteristikasini ifodalaydi. Uni o‘rganishga ikki tomondan yondashish mumkin: bilimga ega bo‘lgan va kognitiv hamda o‘zgaruvchan faoliyatga e’tibor qaratadigan odamlar to‘plami sifatida; jamiyat maqsadlariga erishish vositasi bo‘lgan moddiy-texnik shakllar va belgi tizimlarida mujassamlangan ilmiy, texnik, ijtimoiy va madaniy bilimlar to‘plami sifatida.


Intellektual salohiyatni rivojlantirishning ijtimoiy-mafkuraviy omillari	
Ichki omillari	Tashqi omillari
individual qobiliyatlar	ijtimoiy muhit
jismoniy salomatlik	ijtimoiylashuv sharoitlari
atrof-muhitga moslashuvchanlik	tarbiya
innovatsion potensial	o‘qitish
intellektual kapital	sohaga doir davlat siyosati
ma’naviy-ruhiy barqarorlik	aholining intellektual darajasi davlatlararo iqtisodiy va siyosiy raqobat darajasiga aylanishi

Tadqiqot natijasiga ko‘ra, intellektual rivojlanishning tashqi omillari ijtimoiylashuv sharoitlari, tarbiya, o‘qitish va atrof-muhit ham muhim hisoblanadi.

O‘zbeklar mentalitetida bilim olish istagi yuqori bo‘lgan xalqdir. Intellektual salohiyat nafaqat yuqori texnologiyali sohalarida namoyon bo‘ladi. Shaxsning boshqaruv qarorlari va ijodiy faoliyatining aql-idrok intensivligi faoliyatning barcha sohalarida, ichki va xalqaro miqyosda tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. Millatning

intellektual salohiyati bir necha tarkibiy qismlarga ega. Bizning fikrimizcha, u obyektiv tizimlar, obyektlar va tashkilotlarni, shuningdek, bevosita subyektiv komponentlarni, shaxsiy potensialni o‘z ichiga oladi.

Dissertatsiyada yoshlarning intellektual salohiyatini shakllantirish omillaridan biri intellektual kapital masalasidir. Intellektual kapital – bu xodimlarning ilmiy va kundalik bilimlarini, intellektual mulkni va to‘plangan tajribani, aloqa va tashkiliy tuzilmani, axborot tarmoqlarini va kompaniyaning imidjini to‘playdigan “jamoaviy miya” ning bir turi²². V.L. Inozemsevaning fikricha, intellektual kapitalning tarkibiy qismlari: birinchi – inson kapitali, ularning tajribasi shaklida kompaniya xodimlari mujassam bilim, ko‘nikmalari, innovatsion qobiliyati, shuningdek, umumiy madaniyati sifatida, kompaniya falsafasi, uning ichki qiymati: ikkinchi-tarkibiy kapital, patentlar, shu jumladan, litsenziyalar, savdo belgilari, tashkiliy tuzilishi, ma’lumotlar bazalari, elektron tarmoqlar.



Tadqiqot asosida inson kapitalining quyidagi ta'rifini taklif etamiz:

Inson kapitali – ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-falsafiy tushuncha (atama) bo‘lib, bu shaxsning:

– fundamental va amaliy bilimi, tajribasi, ko‘nikmalari, tabiat va jamiyatdagi voqea, hodisa va jarayonlarga ilmiy-mantiqiy yondashish, ularning innovatsion yechimlarini topishdagi professionallik darajasi;

– intellektual mulki, moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish imkoniyatlari, inson va jamiyat taraqqiyotini kafolatlovchi kuch va vositalar majmuining mavjudligi;

– aqliy mehnati va yuksak innovatsion tafakkuri, uning turmush darajasi va kasbiy karyerasining oshishi, jamiyatdagi mavqei va o‘rnini belgilovchi omil hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 7-ustuvor maqsadi Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini

²² Боженкова Л.И. Интеллектуальное воспитание учащихся при обучении геометрии. – Калуга, 2007.

oshirishni koʻzda tutadi. Ushbu strategiyada bu borada bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan boʻlib, jumladan: yoshlarni oliy taʼlim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarini oliy maʼlumotli pedagog kadrlar bilan toʻliq taʼminlash, 30 ta oliy taʼlim muassasasining taʼlim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan oʻtkazish, “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qoʻshma taʼlim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish, 10 ta oliy taʼlim muassasasini dunyoning eng nufuzli “Top-1000” oliy taʼlim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish hamda oliy taʼlim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish kabilar belgilangan²³.

Ayni paytda jamiyatning oliy taʼlimga boʻlgan talabi dinamik ravishda oʻzgarib bormoqda. Kelajak bitiruvchilarini tayyorlash uchun maʼlumot nuqtasi bilim, koʻnikma va hatto malakalarni rivojlantirish emas, balki intellektual salohiyatni rivojlantirishdir. Oliy taʼlimni rivojlantirish milliy konsepsiyasining umumiy maqsadlaridan biri ham “Yangi Oʻzbekiston uchun yangi universitetlar” doktrinasidan kelib chiqib, “universitetlar mamlakatning intellektual resurslarini rivojlantirishga hissa qoʻshishi kerak”. Shaxsning intellektual salohiyati jamiyatga faoliyatning turli sohalarida yuqori natijalarga erishishga imkon beruvchi resursdir.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga koʻra, agar 5–7 yil davomida mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YAIM) ilmiy-tadqiqot xarajatlarining ulushi yiliga 1 foizdan oshmasa va natijada milliy intellektual salohiyatning yoʻq qilinishi mumkin boʻlsa, yuqori tabiiy fanlar va muhandislik maʼlumotiga ega boʻlgan odamlarning ulushi milliy iqtisodiyotda band boʻlganlarning umumiy sonida 2–4% gacha boʻlgan vaqtinchalik kechikish bilan kamayadi. Aynan shu belgilangan qiymatlar regressli iqtisodiyotga xos boʻlgan intellektual salohiyat “tanqidiy massasi”ning pastki chegarasi boʻladi, bu koʻrsatkich oddiy takror ishlab chiqarishga mos keladigan qiymatlardan oʻtganda (yaʼni, maksimal darajada barqarorlikni saqlash) kuzatiladi.

Soʻnggi 10–15 yil ichida dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlari mahsulot va xizmatlar tannarxidagi moddiy komponentning pasayishi (atigi 10–15%) va bilim va maʼlumot olish xarajatlari ulushini oshirishning barqaror tendensiyasini boshdan kechirmoqda. Hisob-kitoblarning koʻrsatishicha, jahon ilmiy texnika salohiyatining 90%i va global yuqori texnologiyalar bozorining 80%i Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga aʼzo mamlakatlari hissasiga toʻgʻri keladi. Xususan, AQSH tovar eksporti tarkibida yuqori texnologik mahsulotlar ulushi – 32%ni, Buyuk Britaniyada – 31%, Yaponiyada – 26%, Fransiyada – 23%ni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlarda yuqori texnologik mahsulotlar eksportidan kelib tushadigan foyda miqdori jadal surʼatlar bilan oʻsib bormoqda. Jumladan, ushbu faoliyatdan olinadigan yillik daromad miqdori hozirda AQSHda – 700 mlrd., Germaniyada – 530 mlrd., Yaponiyada – 400 mlrd. dollardan yuqori summani tashkil etadi²⁴.


Bugungi kunda Qoʻshma Shtatlarda 1000 ga yaqin venchur kapital kompaniyalari faoliyat yuritmoqda va ularning innovatsion loyihalarga yillik hissasi 30–40 milliard dollarni tashkil etadi. Shunga oʻxshash vaziyat boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham

²³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-158-son Farmoni / <https://www.lex.uz/uz/pdfs/6600413>

²⁴ UNCTAD Handbook of Statistics 2014. New York and Geneva, 2014. R. 155, 171.

kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, venchur kapital fondiga 100 ta taklifdan faqat bittasi mablag' oladi va moliyalashtirilgan loyihalarning atigi 30 foizi 3–5 yil ichida muvaffaqiyatli bo'lib, foyda ko'rishni boshlaydi. Bundan tashqari, ushbu foyda miqdori bank foizidan 10–15% yuqori bo'lmaydi. Ayni paytda O'zbekistonda ham bir nechta Venchur fondlari faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, UzVC davlat fondi, korporativ Uzcard Ventures va Aloqa Ventures, xususiy Semurg VC va 5–6 ta janubiy-sharqiy Osiyo, Yevropa, Qozog'iston kabi mamlakatlarning Venchur fondlari vakillari mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatishmoqda²⁵. Biroq ushbu faoliyat sohasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni juda ko'p narsani talab qiladi.

Yuqoridagi tahlillar va o'rganishlardan kelib chiqqan holda yoshlarda intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi omillarni quyidagicha tizimlashtirdik:



Dissertatsiyaning “Raqamlashgan jamiyatda dunyoning intellektual manzarasi va unda yoshlarning o'rni” deb nomlangan uchinchi bobida yoshlarning ijtimoiy-madaniy hayotga moslashuvining madaniyatlar dialogi sifatidagi ahamiyati, yoshlarning submadaniyati shakllanishida intellektual salohiyatning roli bu boradagi to'siqlar va ularning yechimlari bo'yicha yechimlar taklif etilgan.

Muallif fikricha, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasini shakllantirish, birinchi navbatda, asosiy manfaatlarni belgilashni nazarda tutadi, uning asosida milliy ustuvorliklar, maqsad va vazifalar tizimi shakllanadi. Ular tavsifining aniqligi juda muhimdir, chunki keyingi darajalarning barcha maqsadlari to'g'ridan-to'g'ri asosiy ustuvorliklardan kelib chiqadi. Dastlab quyi darajadagi vazifalarni batafsil ishlab chiqish nafaqat ma'nosiz, balki zararli ham bo'lishi mumkin, chunki agar ustuvorliklar noto'g'ri belgilansa, tafsilotlar aniqlovchi muammolardan shunchalik uzoqlashishi mumkinki, yakuniy natijalar, hatto individual vazifalar muvaffaqiyatli hal qilinsa ham, milliy manfaatlarga zid keladi va zarar yetkazadi. O'zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi, uning mantiqiy davomi sifatida taraqqiyot strategiyasi hamda “O'zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan vazifalar mamlakat manfaatlarini to'la o'zida mujassam etadi.

²⁵ <https://er10.kz/read/tocka-rosta/venchurnye-fondy-uzbekistana-i-kazahstan>

Intellektual salohiyatni rivojlantirishdagi eng muhim omil sifatli oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarga sifatli ta'lim berish, taraqqiyot bilan hamqadam bo'lib kelayotgan mutaxassislarni tayyorlash borasida ham izchil ishlar amalga oshirilmogda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. So'nggi 5 yil davomida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida 12 ta Prezident farmoni, 65 ta Prezident qarori, 169 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, 66 ta idoraviy hujjatlar, 1 ta qonun, jami 313 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi²⁶.

